

QUR'ONI KARIM – AXLOQIY-FALSAFIY TA'LIMOT MANBAI

*Qo'shimboyeva Barno**TATU SF KI 23-04 guruh talabasi**Ilmiy rahbar: Samatov.X.U.**TATU Samarqand filiali*

Annotatsiya. Islom dinining tarqalishi insonlarning ongi rivojlanayotganidan dalolat beradi. Ta'lim-tarbiya eng avval islomiy odat ekanligi, Qur'oni Karimdan kelgan oyatlar bizning bugungi axloqimizni belgilashi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Tarbiya, din, ta'lim, e'tiqod, ezgulik, Alloh, Payg'ambar, Qur'oni Karim.

Din – tabiat, jamiyat, inson va uning ongini yashashdan maqsadi hamda taqdirini bevosita qurshab olgan, atrof-muhitdan tashqarida bo'lgan, insonni yaratgan, ayni zamonda unga birdan-bir «to'g'ri», «haqiqat» va «odil» hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rganadigan ilohiy qudratga ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarash ta'limotdir. Din-(arab. — e'tiqod, ishonch, itoat) — Xudo yoki xudolarga, g'ayritabiiy kuchlar mavjudligiga ishonish. Din muayyan ta'limotlar, his-tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon bo'ladigan, olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida tarzi, uni idrok etishning o'ziga xos usuli. Dinning paydo bo'lishi haqida yagona fikr yo'q. Islom dini ta'limotiga ko'ra, Din - Alloh tomonidan o'z payg'ambarlari orqali bashariyat olamiga joriy etilajagi zarur bo'lgan ilohiy qonunlardir. Tabiat va insonni yaratgan, ayni vaqtda insonga to'g'ri, haqiqiy hayot yo'lini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy qudratga ishonchni ifoda etadigan ta'limotdir. Ta'lim - bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Tarbiya - shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora tadbirlar yig'indisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiyasiz alohida odam ham, kishilik jamiyati ham mavjud bo'la olmaydi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar Tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi. «Qur'on» - dunyo madaniyatining ulkan boyligi, barcha musulmonlarning muqaddas kitobi bo'lib, arab tilida «qiroat» ma'nosini anglatadi. Qur'on 114 suradan iborat. Qur'on kishilarni birodarlikka, tinch-totuv yashashga, ezgulikka undaydi. Shuning uchun ham u katta axloqiy ahamiyatga ega. «Qur'on»ning axloqiy qimmatini haqida fikr yuritilar ekan, uning insonning ma'naviy kamolga yetishida qay darajada muhim o'ringa ega ekanligiga amin bo'lamiz. Markaziy Osiyo xalqlari pedagogik fikrlari tarixiy taraqqiyotida VII asrda

Arabiston yarim orolida paydo bo'lgan va VIII asrda mintaqamizga ham yoyilgan islom dini muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Chunki islom dini, uning asosiy kitobi «Qur'oni Karim» va undan keyingi asosiy manba hisoblangan hadislar Allohga, uning payg'ambari Muhammad alayhissalomga e'tiqod qilish bilan birga ota-onaga hurmat, mehnatsevarlik, ilmga intilish, o'zaro ahil bo'lish, mehr-oqibat, ehson, sabr-toqat, kamtarlik, vafosadoqatlilik, poklik, adolat, diyonat kabi insoniy sifatlar haqidagi jihatlari va yaxshi fazilatli hamda odob-axloqli bo'lishlik yo'llari bayon etilgan. Xuddi shuningdek, islom dinida millatidan, elatidan, tanasining rangidan qat'iy nazar, inson insonligi uchun ulug'lanadi. Millatchilik, bir-birini kamsitish, talon-tarojlik, irqchilik islomda yo'q va bo'lmagan. Islom dini har qanday millatchilik kayfiyatidan yuqori turadigan olamshumul ta'limot. U barcha millatlarni birlashtirib, teng, do'st, yorubirodar qilib, tinch-omon yashashlarini uqtirib keladi. Ayni paytda islom dinida razolat, kibr-havo, adovat, xasad, xiyonat, zulm kabi illatlar qoralanadi. Qur'oni Karimdagi oyatlardan biri madinalik sahobalar Payg'ambar sollallohu alayhi vasallamga kelib, uylari uzoqlik qilayotgani bois, uylarini sotib, yaqinroq joyga ko'chib kelishlari haqida shikoyat qilganlarida nozil bo'lgan. Ya'ni uylarni sotishga hojat yo'q, uzoqdan kelayotgan bo'lsalar, har bir bosilgan qadamlariga savob beriladi, mazmunida. «Biz ular keltirgan qadamlarni, bosgan qadamlarni ham yozamiz va ularning asarini ham yozamiz», – deya marhamat qilingan. Tafsiirlarning birida bu oyatdagi «ularning izi» degani – bu asarimiz, avlodlarimizdir, degan fikr bildirilgan. Allohning bu oyatidan tushunamizki, Alloh nafaqat amalimizni, balki avlodlarimiz amalini ham o'zimizga yozadi. Shuning uchun tarbiya vojib bo'ladi. Orqamizdan yaxshi tarbiyali farzand qoldiraylikki, ortimizdan faqat savob borsin, yomonlik bormasin. Islomda tarbiya vojibdir. Tarbiya dinimizda vojib amal, deb e'lon qilingan. Biz eng ko'p ishlatadigan tarbiya, murabbiy so'zlari Allohning «Rob» ismi bilan bitta o'zakdan olingani tarbiyachilar mas'uliyatini oshirsa kerak, deb o'ylayman. Demak, bu yengil ish emas. Tarbiya – faqat ta'sir, tartib yoki nazorat, taftish emas, u ilohiy narsa. Tarbiya farzandni doim nazoratga olish, kuzatib borish degani, chunki Alloh taolo surai Fotihaning birinchi oyatida olamlarning robbisi Allohga maqtovlar bo'lsin, degan. Bu oyatda Alloh Rob ismini keltirgan. «Robbil a'lamiyn» – butun olamlarning murabbiysi degani. Agar Alloh murabbiyligi, ya'ni nazorati, kuzatuvini lahza to'xtatsa, olamlar izdan chiqib ketadi. Agar murabbiy yoki ota-ona farzandiga bir lahza e'tiborsiz bo'lsa, farzandlar tarbiyasi buzilib ketadi. Rasuli akram sollallohu alayhi vasallam marhamat qilganlarki, har bir tug'iladigan bola fitratda tug'iladi, ya'ni har bir chaqaloq pokiza bo'ladi, u oq qog'oz kabidir.

VIII asrning I yarmida arablar O'rta Osiyoda to'liq [zabt etgach](#), islom dini bilan birga arab tili va yozuvi, arab madaniyati ham kirib keldi. Natijada oilaviy munosabatlarda ham shariat qoidalari, islom ahkomlari faol qaror topa boshladi. Islom dinining muqaddas kitobi «Qur'oni Karim» mazkur davr oila muammolari, er-xotin,

ota-ona va farzandlar munosabatlari, bola tarbiyasi kabilarni yo'lga qo'yishda dasturul-amal vazifasini bajargan. Yettinchi asrning birinchi yarmida nozil bo'lgan Qur'oni Karim islom dini ta'limotida bosh manba hisoblanadi. Qur'oni Karim Alloh taolo tomonidan Payg'ambarimiz Muhammad alayhissalomga 23 yil mobaynida sura, oyat tarzida farishta – Jabroil alayhissalom orqali ilohiy vahiy sifatida, arab tilida, og'zaki nozil qilingan. Qur'oni Karimning oyatlari bir joyda emas, balki Makka, Madina, Toif, Juhfa, Baytil-maqdis, Hudaybiya kabi shaharlarga va Mino, Arafot, Badr, Uhud kabi joylarda nozil qilingan. «Qur'on» - dunyo madaniyatining ulkan boyligi, barcha musulmonlarning muqaddas kitobi bo'lib, arab tilida «qiroat» ma'nosini anglatadi. Qur'on kishilarni birodarlikka, tinch-totuv yashashga, ezgulikka undaydi. Shuning uchun ham u katta axloqiy ahamiyatga ega. «Qur'on»ning axloqiy qimmatini haqida fikr yuritilgan ekan, uning insonning ma'naviy kamolga etishida qay darajada muhim o'ringa ega ekanligiga amin bo'lamiz. Yuqorida ta'kidlanganidek, «Qur'on»da uylanish, er-xotin, ota-ona va farzandlar munosabatlari, farzand tarbiyasi masalalariga katta ahamiyat berilgan. Jumladan, har bir muslim va musulmaning oila qurishi Ollohning farzi ekanligi ta'kidlanib, «Qur'oni Karim»ning «Baqara» surasi 223-oyatida shunday bayon etiladi: «Hotinlaringiz sizlarning ekinzor yerlaringiz bo'ladi. Ziroat yerlari urug' sepganda Samara beradi. Xotin ham ekinzordir va hosili farzand. Bas o'z xotinlaringiz farzand niyatida aloqa qiling va kelajakda o'zlaringiz uchun farzand tarbiyalang. Xudodan qo'rqing, uning nazariga ilinmangiz. Bas, tug'ilish va visol uchun berilgan quvvatni bekor qoldirmang va zoe qilmang. Ey, Muhammad saodat mujdasini iymonlilarga bergin». Bundan tashqari hozirgi kundagi eng muhim masalalardan biri uylanishdan oldin yigitning qizga «qalin puli» to'lashi masalasiga e'tibor qaratilib, unda belgilangan qoidalarga rioya qilishligi «Niso» surasining 4-oyatida shunday uqtirilgan: «Xotinlaringizga mahrlarini hadya kabi beringiz! Agar o'zlari sizlar uchun u mahrdan biron narsani ixtiyoriy ravishda kechsalar, sizlar uni pok va muborak bilib yeyaveringlar». Uylanish majburan emas, yigit va qizning bir-biriga muhabbati asosiga qurilishi, agarda er-xotinlik mehr-muhabbatsizlik asosida bo'lsa, bunday oilaning poydevori zaif bo'lishi «Rum» surasining 21-oyatida ta'kidlab o'tilgan: «Sizlarga o'z jinslaringizdan juft yaratdi, toki siz o'z juftingiz bilan orom topingiz. Xotinlar va erlaringiz o'rtasida muhabbat va mehribonchilik ehson qildi» yoki «Niso» surasining 128-oyatida «Ayollarga yaxshi muomalada bo'linglar», deya nozil qilingan. Shu bilan bir qatorda ayollarning erlari oldidagi burchlari ham ko'rsatib berilgan. Niso surasining 34-oyatida «Yaxshi ayollar o'z erlariga itoat qilgan xotinlar, erlarining mollarini va o'z nomuslarini nobudlik va begonalar qo'lidan himoya qiladiganlar, - deb madh etiladi. Ayollar va erkaklarning o'z nafslarini tiya olishlari, diyonat, iffat kabi xislatlarni o'zlarida mujassamlashtirishlari zarurligi, er-xotin murosasimadira qilib yashashi zarurligiga ham e'tibor qaratilgan. Jumladan, «Qur'oni Karim»da iffat va nomusning erga ham, xotingga ham barobar ekanligi «Nur» surasining 30-31 oyatlarida shunday

bayon etilgan: «Ey, Muhammad! Ahli islom erkaklariga aytgin: oshkor va yashirin ko‘zlarini haromdan yopsinlar va nafslarini haromdan tiysinlar. Bu harakat ularning o‘zlariga pokizaroq, yaxshiroq ko‘rinadi. Xudovandi olam qilgan har bir ishdan xabardordir. Ayollarga ham aytgin: ko‘zlarini va o‘z nafslarini haromdan saqlasinlar». Erlarning xotinlari bilan mjurosa-yu, madora qilib yashashlari lozimligi «Niso» surasining 31-oyatida: «Ey ahli islom kishilari! O‘z xotinlaringiz bilan yaxshi muomala qiling. Agar ularga nisbatan mehringiz bo‘lmasa ham (sabr qiling va yaxshi muomalani tark etmang). Zero, Alloh taolo sizlarga yomon ko‘rgan narsada ko‘p yaxshiliklarni qilib qo‘ygan bo‘lishi mumkin» tarzida aytib o‘tilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Islom dini qanchalar go‘zal din ekanligini har bir musulmon ich-ichida his qiladi. Islom dini va uning muqaddas kitobi Qur‘oni Karim insonni hech qachon yomonlik tomon boshlamaydi, aksincha yaxshilik sari yetaklaydi. Bizni dinimiz tarbiyaviy din desak ham bo‘ladi. Har bir oyatlarida tarbiya, ta‘lim, oila muqaddasligi takitlab o‘tilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction (based on the teachings of makhdumi Azami Kasani)." *European Scholar Journal* 2.11 (2021): 45-48.
2. Samatov, Khurshid. "Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in society." *Theoretical & Applied Science* 2 (2016): 175-179.
3. Ulmasjonovich, Khurshid Samatov. "Mystical and philosophical foundations of human interaction." (2021).
4. O.Husanov, O.Karimova, H.Azizov, H.To‘ychieva, Z.Karimov. *Inson huquqlari*. T.: «Sharq», 1997, 20-bet.
5. Islom Karimov. *O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari*. T.: «O‘zbekiston», 1997, 145-bet.